

Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning "uchinchi sektori"ning asosiy yo'nalishlari


Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga yetkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.

2019-yil 1-sentyabr holatiga Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 80,3 mingtani tashkil etadi, ulardan 58,4 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 72,8 % ga yetdi. Ularning o'sishi 22,2 % ga ko'paydi.

2019-yil 1-sentabrholatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 49,0 mingtasi yoki 83,8 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 69,3 % ni tashkil etadi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 0,4 mingtaga ko'payib, o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil etadi.

2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan
kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-sentabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (39,2 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 11,6 % ni tashkil etadi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etadi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga teng bo'ldi.


Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etadi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonini 2018-yilning mos davriga nisbatan ko'payishi
(2019-yil 1-sentabr holatiga, ming birlikda)



(dastlabki ma'lumotlar)


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning soni 10,6 ming birlikga ko'paydi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (10,2 mingtarga) o'tgan yilga nisbatan 4,5 mingtarga ko'paydi.


Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (9,7 mingtarga) 4,5 mingtarga ko'paydi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlik



(dastlabki ma'lumotlar)


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining tumaniy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik tumanlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 39 570,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 8 372,4 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 16,6 % ni tashkil etadi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,4 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar kesimida
ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %**




(dastlabki ma'lumotlar)

Shuningdek, eng katta ulush Mirobod (15,1 %), Shayxontohur (11,0 %), Mirzo Ulug'bek (10,5 %) va Yashnobod (10,4 %) tumanlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bektemir (2,7 %), Uchtepa (4,7 %), Olmazor (5,2 %) va Yakkasaroy (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda eng yuqori o'sish sur'atlari Yashnobod (128,4 %), Chilonzor (127,8 %), Shayxontohur (125,5 %) va Mirobod (116,0 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Nisbatan past o'sish sur'atlari Yakkasaroy (101,0 %), Uchtepa (102,7 %) va Bektemir (109,3 %) tumanlarida kuzatildi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mird. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	39 570,6	116,6
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	1 083,1	109,3
Mirzo Ulugbek	4 140,7	113,6
Mirobod	5 984,3	116,0
Olmazor	2 052,3	112,1
Sirgeli	2 417,4	113,2
Uchtepa	1 855,7	102,7
Chilonzor	4 037,6	127,8
Shayxontoxur	4 352,1	125,5
Yunusobod	6 908,7	115,1
Yakkasaroy	2 407,9	101,0
Yashnobod	4 096,6	128,4
Tumandan tashqari	234,2	114,1

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (156,0 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash (123,6 %), shaxsiy xizmatlar (113,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (109,5 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,5 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (105,8 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Eng past o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (101,1 %), boshqa xizmatlar (102,0 %), ijara xizmatlari (102,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (104,1 %), savdo xizmatlari (104,4 %) va transport xizmatlari (104,6 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	39 570,6	116,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	3 577,4	105,3
Moliyaviy xizmatlar	11 581,4	156,0
Transport xizmatlari	4 626,7	104,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 722,5	102,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 564,1	106,5
Savdo xizmatlari	9 583,7	104,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 735,3	105,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 413,8	101,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	754,2	109,5
Ijara xizmatlari	783,6	102,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	215,6	123,6
Shaxsiy xizmatlar	480,9	113,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 233,7	104,1
Boshqa xizmatlar	2 020,2	102,0

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rilyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi eng katta 29,3 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (24,2 %), transport xizmatlari (11,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,0 %), boshqa xizmatlar (5,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (4,4 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,0 %), shuningdek ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,6 %) kuzatildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 11 581,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 371,7 mlrd. so'mga oshdi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, %**




2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Chilonzor (2,1 marta), Shayxontohur (91,5 %) va Mirzo Ulug'bek (56,9 %) tumanlarda kuzatilmoqda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Sergeli (111,5 %), Bektemir (116,4 %) va Olmazor (123,6 %) tumanlarida sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,9 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruktsiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 24,2 % ni tashkil etib, bu 9 583,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


(dastlabki ma'lumotlar)

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmini – 46,9 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlarining ulushi 44,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylari uchun savdo xizmatlari tarkibi, %




Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

Bugungi kunda respublikamiz transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat va barcha yo'nalishlarda, hamda transportning barcha turlarida yuk va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 58,8 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 37,5 % tashkil qilgan bo'lsa, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,0 %. Kurerlik va pochta faoliyati ulushi esa 1,7 % ga etdi. O'z navbatida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlari esa 0,01 % darajaga etgan.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 3 577,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 5,3 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 9,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 67,6 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari 8,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 11,4 %, axborotlashtirish xizmatlari - 4,9 %, boshqa xizmatlar – 7,4 % ni tashkil etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.



2019-yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 413,8 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 1,1 % ni tashkil etdi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;


ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda

(dastlabki ma'lumotlar)

samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm




Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Mirzo Ulug'bek tumanida qayd etildi. 2019-yil yanvar-avgust oylarida 228,2 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu yerda joylashganligidadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Mirobod tumanida – 113,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari, %




Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Chilonzor (104,4 %), Yunusobod (104,2 %), Olmazor (101,5 %) va Uchtepa (101,5 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida eng past o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida – 84,3 % qayd etildi.


2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi, hajmi esa 285,8 mlrd. so'mga oshdi va 1 564,1 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 73,4 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 285,8 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 4,0 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunsobod tumanida 444,5 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 85,8 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar kesimida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning
o'sish sur'atlari va hajmi**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 13,5 mlrd. so'm qayd etilib, 3,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Shayxontohur tumanida qayd etildi (29,8%). Bundan tashqari, Uchtepa (14,3 %) va Bektemir (12,3 %) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

Mirzo Ulug'bek tumanida o'sish sur'atlari nisbatan katta bo'lmagan. Ular 94,0 foizni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 754,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil etadi.

**Jami sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmida
tumanlar kesimidagi ulushini taqqoslanishi, %**



Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Olmazor tumani egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 71,5 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni

(dastlabki ma'lumotlar)

saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 20,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek (19,0%), Chilonzor (13,2 %) va Yunusobod (11,2%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'lmagan tumanlar Bektemir (0,7 %) va Sergeli (1,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15